
“Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida Mustaqilligimizning 31 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirlari

“Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz” shiori ostida Mustaqilligimizning 31 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirlari tumanimizdagi Qanjirg‘a mahallasida aholi va yoshlar uchun sport musobaqalari, ko‘ngil ochar o‘yinlar hamda konsert dasturlari yaqori saviyada bo‘lib o‘tdi.

Bayram tadbirida mahalla ahli, nuroniylar hamda ko‘plab yoshlar ishtirok etdi. Tadbir qiziqarli va ko‘tarinki ruhda tashkil etilib, aholiga haqiqiy bayram kayfiyati ulashildi. Tadbir doirasida sport musobaqalari ham o‘tkazilib, yoshlar milliy kurash, shaxmat-shashka bo‘yicha o‘zaro kuch sinashdilar. Mahalla yoshlari xotin-qizlari o‘rtasida shar ishirish, stol o‘yinlari bo‘yicha bellashuv bo‘lib o‘tdi.

Bayram tadbiri yakunida g‘oliblar tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg‘alari hamda faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar.

2022-09-01 10:17:55